ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Abriyev Zoir

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Shamsiddinova Dilnoza

Toshkent davlatiqtisodiyot universiteti magistranti

BUXORO VILOYATI TURIZM SALOHIYATINI OSHIRISHDA KADRLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqola turizm sohasida kadrlar tayyorlashdagi so'ngi yangiliklarni bayon qiladi va Buxoro viloyati turizm jabhasidagi eng so'nggi o'zgarishlarda kadrlarning o'rnini, ahamiyati chuqur o'rganadi.Shu bilan birgalikda, xorij mamlakatlarida aynan shu sohada kadrlar tayyorlashda sistemasini yurtimizda qo'llash imkoniyatlari va salohiyatlarini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: mehmonxona, dual-ta'lim, kadrlar, tur agentlar, tur operatorlar, strategiya, xodimlar, front-office, nazariy bilimlar, amaliy bilimlar, gastronomik turizm, tur firmalar, bandlik ko'rsatkichlari.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF PERSONNEL IN THE INCREASING OF TOURISM INDUSTRY IN BUKHARA REGION

Abriyev Zoir

Associate Professor, PhD, Tashkent State University of Economics

Shamsiddinova Dilnoza

Master's student,Tashkent State University of Economics

Abstract: The article provides information about the personnel in tourism sector and the news about system studying students of turism industry and learn the role of the personnel in changes tourism industry in Bukhara region depthly. In addition to, it analyses the opportunity and ability of system that foreign country uses in order to prepare new personnel in tourism industry,learning how to apply this system in our country as well.

Key words: hotel, dual study, personnel, tour agency, tour companies, strategy, staff, front-office, theoretical knowledge, practical knowledge, gastronomic tourism, tour operators, employment indicators.

Kirish

Dunyo bo'ylab turizmning iqtisodiyotdagi o'rni ortib borayotganligi barchamizga ma'lum. Jumladan, turizmning Yalpi Ichki mahsulot(YaIM) roli ham Pandemiya (Covid-19)dan so'ng jadal ravishda tiklanmoqda. Turizmning iqtisodiyotdagi o'rni ortib boravegandan so'ng, ishchi kuchi bo'lgan talab, turizmning daromadlar manbaini diversifikatsiya qilishdagi roli va

investitsion muhitga qo'shadigan hissasining ko'payishiga sabab bo'lmoqda. O'zbekistonda ham turizm iqtisodiyotga bilvosita o'z ta'sirini o'tkazmoqda, xususan, bir turist mamlakatimizga tashrif buyurishi, avia chipta sotib olishi, mehmonxona ximzatlaridan va restoranlarda ovqatlanish xizmatlaridan va transport xizmatlaridan foydalanishi, bundan tashqari, bir turistning biror bir sovg'a,souvenir va esdaliklar xarid qilishi ham turizmning iqtisodiyotdagi hissasidan dalolatdir. Yuqoridagi xizmatlardan turistlarga ko'rsatish, ularning "ajoyib va unitilmas sayohat"ini mazmunli o'tqazishda ishtirok etuvchi kadrlar va xodimlarga bo'lgan talab ortmoqda.Shu sababli,yurtimizda yangi kadrlarni ishlab chiqarish maqsadida so'nggi yillarda bir nechta qonuniy hujjatlar imzolandi. Jumladan, Prezidentimizning 202-yil 18-iyuldagi PQ-269 sonli qarorining 1-ilova "Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qaroriga ko'ra yurtimizda xalqaro standartlarga mos keladigan talim strategiyasini yaratish,turizm xizmatlar va xizmatlar bozorining zamonaviy talablariga mos keladigan raqobatbardosh yangi kadrlarni tayyorlashda yangi tizimni joriy qilish, shuningdek, jahon bozori talablariga to'gri keladigan xizmat sifatini joriy qilish maqsadida, "2024-2025-o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasidagi davlat oliy ta'lim muassasalarida turizm va mehmonxona xo'jaligi sohalarida kadrlar tayyorlash tizimi uch yillik oliy ta'lim dasturlari asosida yo'lga qo'yiladi va o'quv jarayoni "blok-modul" tizimiga asoslangan dual ta'lim shaklida tashkil etildi. Bunda, o'quv jarayonlarining nazariy va amaliy mashg'ulotlar ulushini:

Birinchi o'quv yilida-80 % nazariy,20 % amaliy;

Ikkinchi o'quv yilida- 50 % nazariy, 50% amaliy;

Uchinchi o'quv yilida_30 % nazariy,70% amaliy bo'lishi belgilandi.

Bundan tashqari, nafaqat yosh talabalarni amaliyotga qiziqtirish, balki yosh tadbirkorlarni turizmdagi o'rnini kengaytirish maqsadida 2024-yil 1-avgustdan boshlab yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan amaliyot ba'zalari ya'ni turoperatorlar, tur-agentlar, tur firmalar,mehmonxona, gid-tarjimon va turizm transport xizmatlarini ko'rsatuvchi obyektlar belgilangan tadbirda tashkil etilishiga ruhsat berildi.[1] Darhaqiqiat, turizm jabhasida kadrlarni ko'paytirish maqsadida yurtimizda ko'plab yangi loyihalar qabul qilinidi, jumladan, Prezidentimizning 2021 -yilning 30-oktabrdagi PQ_5270 sonli "Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizmini takomilllashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qaroriga muvofiq "Buxoro turizm texnikumi" "Buxoro turizm va madaniy meros texnikumi" deb qaytadan nomlandi.[2]

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Turizmning rivojlanishi nafaqat yangi kadrlarni ishlab chiqarishda, balki aholi orasida "sayohat qilish" va "turizm " tushunchasini ham ortishiga sabab bo'lmoqda.Statistika ma'lumotlariga ko'ra,xorij davlatlariga sayohat qilgan O'zbekiston fuqarolari 5757,8 ming kishini tashkil qiladi.[3] Turizm rivojlanayotgan zamonda kadrlarga bo'lgan ehtiyoj ham yuqorilab bormoqda. Turizm sohasidagi tadbirkorlar ularga malakali va bilimli kadrlar yetishmayotganidan

[1] https://lex.uz/acts/-7031185

[2] https://uz.wikipedia.org/wiki/Foydalanuvchi:Buxoro_turizm_va_madaniy_meros_texnikumi

[3] https://share.google/L9bmX86Xwyr5158B4

shikoyat qilishmoqda.Shu bois,turizm sohasida kadrlar yetishmovchiligi bilan bog'liq muammolarni hal qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi va Prezidenti tomonidan yangi qonuniy hujjjatlar imzolangan. Xususan, yurtimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2024-yil 18-iyulda qabul qilingan PQ-269- raqamli "Turizm sohasida kadrlar tayyorlashni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qaroriga binoan 2025-2026 yildan boshlab Samarqand Shahridagi Xalqaro turizm akademiyasida mehmonxona va restoranlar uchun yuqori malakali xodimlarni tayyorlash yo'lga qo'yilishi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi hamda tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda 2025-yil 1- martga qadar "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti qoshidagi professional ta'lim muassasalariga xalqaro darajada tan olingan ta'lim dasturlarini "franshiza" asosida joriy etish choralari ishlab chiqilishi, Oliy-ta'lim,fan va innovatsiyalar vazirligi Turizm qo'mitasi bilan birgalikda 2024-2025 o'quv yiliga qadar mamlakatimizdagi turizm va mehmonxona xo'jaligi sohalari bo'yicha oliya ta'lim dasurlarini jahon reytingida birinchi 100 talikka kiruvchi nufuzli oliy ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlari asosida qayta ko'rib chiqib,"Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori"da ushbu yo'nalishlarni kemgaytirish va unga pazandachilik sohasida yangi ta'lim yo'nalishlarini kiritilishi,turizm va mehmonxonaxo'jaligi sohalariga oid oliy ta'lim yo'nalishlarida dual ta'lim shakli bo'yicha Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg'unlashgan yangi ta'lim dasturlari ishlab chiqilishi, 2024-yil 1- avgustdan boshlab oliy ta'lim muassasalarida turizm mehmonxona xo'jaligi sohalarida kadrlarga bo'lgan buyurtmalarni shakllantirishda yo'nalishlariga oid amaliyot bazalari mavjudligini qat'iy nazoratga olinishi, ikki oy muddatda turistlarga xizmat ko'rsatuvchi gid-tarjimonlar sonini oshirish maqsadida oliy ta'lim muassasalari huzurida shartnoma asosida arab, yapon, hind, ispan, italyan, koreys, urdu, indonez va malay tillarida xizmat ko'rsatuvchi gid-tarjimonlar tayyorlash bo'yicha qo'shimcha kuslar tashkil qilish to'g'risida qarorlar imzolandi va ushbu qarorlar bosqichma-bosqich bajarilinmoqda.[4] Yuqorida aytilganidek, mamlakatimizda turizm sohasining rivojlanishi va kadrlarga bo'lgan ehtiyojning ortishi aholi orasida turizmga qiziqshni ortishiga sabab bo'lmoqda,jumladan, o'zbekiston fuqarolarining bo'sh vaqt va dam olish sayohatlariga tashrif buyurishinining ortishi quyidagi 1-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

Chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining turistik safarlari sonining maqsadlar va davlatlar kesimida taqsimlanishi[5]

(2025-yilning yanvar-sentabr oylari uchun,ming safar)

[4] https://lex.uz/acts/-7031185

[5] https://share.google/L9bmX86Xwyr5158B4

	Jami:	**Xizmat safari**	**O'qish**	**Bo'sh vaqt va dam olish**	**Qarindoshlarni yo'qlash**	**Davolanish**
Jami turistlar soni:	**5757,8**	**12,0**	**24,7**	**1161,5**	**4504,8**	**54,8**
Qirg'iziston Respublikasi	2561,9	1,4	3,5	256,6	2272,0	28,4
Qozog'iston Res.	1058,4	0,9	1,0	85,3	962,7	8,5
Tojikiston	994,2	0,6	5,5	13,1	970,3	4,7
Rossiya	342,6	1,6	5,5	158,4	171,5	5,6
Turkiya	208,6	1,4	2,1	156,1	46,0	3,0
Saudiya Arabistoni	190,3	0,1	0,0	161,4	28,2	0,6
BAA	103,2	0,8	0,2	90,8	11,1	0,3
Misr	51,0	0,0	0,0	45,6	5,2	0,2
Xitoy	32,9	1,0	1,1	26,5	4,2	0,1
Vetnam	31,5	0,0	0,0	29,1	2,4	0,0
Janubiy Koreya	29,1	0,3	3,3	20,2	5,3	0,0
Tailand	20,3	0,1	0,0	18,0	2,1	0,1
Hindiston	16,4	0,1	0,1	11,9	1,7	2,6
Ozarbayjon	15,8	0,4	0,1	13,1	1,9	0,3
Gruziya	15,7	0,1	0,0	13,8	1,8	0,0

Boshqa davlatlar	85,9	3,2	2,3	61,6	18,4	0,4

Yuqoridagi jadvaldan shuni ko'rish mumkinki,turizm importi ko'rsatkichi jami bo'lin 5757,8 ming kishini tashkil qilmoqda, bulardan xizmat safari uchun sayohat qilganlar 12,0 ming,o'qish safari uchun 24,7 ming, bo'sh vaqt va dam olish uchun sayohat qilganlar 1161,5 ming kishi, qarindoshlarni yo'qlash va davolanish maqsadida safar qilganlar soni esa 4504,8 va 54,8 ming kishini tashkil qiladi. Eng ko'p sayohat qilingan davlatni Qirg'iziston Respublikasi bo'lib,2561,9 ming kishini tashkil qilgan va eng ko'p bo'sh vaqt va dam olish maqsadida tashrif buyurganlar hisoblanadi va ular 2272,0 ming inson sayohat qilgan.

Natijalar

2024 yilda "Turizm va sayohat" ning Jahon Yalpi Ichki Mahsulotdaga(YaIM) qo'shgan hissasi 10,9 triliyon dollarni tashkil qildi.Bular bevosita, bilvosita va induksiyali ta'sirni o'z ichiga oladi.Bu summa shuni ko'rsatadiki, "Turizm va sayohat"ning jahon iqtisodiyotidagi roli 10 % izni tashkil qiladi.Bundan tashqari,"Sayohat va turizm" bandlike ko'rsatkichining asosiy omili ham hisoblanadi.2024- yilda taxminan 357 million ishchi turizm sohasida xizmat ko'rsatdi.Bu dunyo bo'yicha har 10 kishining biri turizm sohasida ishlashini tashkil qilmoqda.Mahalliy sayyohlar sayohat davomida 5,3 trilyon AQSH dollarini sarflashmoqda,bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 5,4 % ortganini ko'rsatmoqda.Shu bilan birga, xalqaro turistlar soni 2023- yilga nisbatan 11,6 % ga oshib, 1,9 trilyon AQSH dollarini tashkil qildi.[6] Turizm sohasining Jahon iqtisodiyotidagi va Bandlik ko'rsatkichlariga qanchalik ta'sir ko'rsatganini yuqoridagi global bandlike statistikasi ko'rsatkichlari orqali yaqqol ko'rishimiz mumkin.2024-yilning statistik ma'lumotlariga ko'ra, h dunyoning 16 % aholisi yoshlarni tashkil qilmoqda va ularning har 5 tasidan biri oliy ma'lumotli emas,o'qimagan hisoblanadi.Turizm sektori esa 1,7 trilyon AQSH dollarini tashkil qilmoqda, ammo turizm sohasida o'qimagan kadrlar ham ushbu sohada ishlayotgani ham ma'lum.Bularga qo'shimcha ravishda, dunyo bo'ylab bugungi kunda 882 ming nafar turizm sohasida bo'sh vakansiyalar mavjud.[7] Hozirda turizmning iqtisodiyotga ko'rsatayotgan ta'siri va uning foydalari ko'p albatta, lekin "Sayohat va turizm" dan kelayotgan zararlar ham yo'q emas.Bu haqida Toshkent Davlat Iqtsidiyot Universiettining professori A.A.Eshtayevning "O'zbekistonning turizm salohiyati va uni rivojlantirish istiqbollari(monografiya)" kitobida turizmdan kelgan salbiy oqibatlari haqida aniq va batafsil ko'rsatilgan. Quyidagilar:

- Yer va boshqa tabiat resurslari, shuningdek ko'chmas mulkka nisbatan, ijara munosabatlarida narxlar oshihsiga ta'sir qiladi;
- Turizm importida pullarning chetga chiqib ketishiga yordam beradi;
- Ekologik va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi;
- Voyaga yetmaganlar mehnatidan foydalanish;

[6] https://wttc.org/research/economic-impact

[7] https://www.untourism.int/un-tourism-education

- Ayrim holatlarda boshqa tarmoqlarning rivojlanishiga zarar yetkazadi.[8]

Munozaralar

Turizm-yoshlar va ayollarni ish bilan ta'minlashda dunyoda yetakchi soha hisoblanadi.Hozirda,sohada xizmat ko'rsatayotgan xodimlarning 54 % izni ayollar ko'rsatmoqda(bu global mehnat bozoridagi o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori).Bundan tashqari, turizm sektori 25 yoshgacha bo'lgan yoshlar uchun eng ko'p "birinchi ish joyi" vazifasini bajaruvchi soha hisoblanadi.[9] Darhaqiqat,ushbu ko'rsatkichlar yurtimizda ham yuqorilab bormoqda,ayniqa Buxoro viloyatida. Shu sababdan, Buxoro viloyatida turizm sohasidagi ta'limni yanada rivojlantirish va jadalllashtirish maqsadida yangi turizm maktablari tashkil etilishi kutilmoqda. Bundan tashqari, Buxoro davlat universitetining turizm fakultetida ham yangiliklar olib borilmoqda, xususan, 2025-yilda fakultet olimlari tomonidan mamlakatimizda ilk bor "Inclusive tourism" mobil ilovasi va interaktiv xaritasi ishlab chiqarildi. Ushbu dastur Turizm(yo'nalishlar bo'yicha), Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish, Gid-hamrohligi va tarjimonlik yo'nalishlari bilan birgalikda yaratildi.[10]Shu bilan bir qatorda, Buxoro turizm va madaniy meros texnikumi ham o'z faoilyatini rivojlantirmoqda, ya'ni, Shahrisabz, Marg'ilon va Xiva kabi viloyatlarda bo'lganidek Buxoro viloyatida ham professional ta'lim maskanlari tizmi modernizatsiya qilindi. Ushbu texnikumda asosan o'rta bo'g'in mutaxasisilari ishlab chiqariladi, misol uchun, oshpaz,ofitsiant,mehmonxona ma'muri va boshqalar. Samarqandda ham kadrlar tayyorlash bo'yicha chuqur o'zgarishlar olib borilmoqda,"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti nafaqat O'zbekistonning, balki ShHT davlatlari uchun Oliy ta'lim muassasi hisoblanadi. Ushbu universitet xalqaro standartlardan foydalangan holda,ta'lim dasturlarini yaratgan va bir necha yildan beri minglab oliy malakali kadrlar ishlab chiqarmoqda.Bundan tashqari, universitet toshkentda ham o'z filialini barpo qilgan, xususan, Toshkent turizm va servis kolledji negizida universitetning Toshkent filiali tashkil etilgan hisoblanib,u poytaxtdagi kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qoplab kelmoqda.Shu bilan birga, universitet qoshida xalqaro tadqiqot institute va mezeyi tashkil qilingan.Bundan tashqari, universitetning rasmiy saytida online sayohat(360 gradus bo'ylab), sayr qilish imkonini mavjud.Bu ham aholi orasida universitetga bo'lgan qiziiqishni ortishiga va nafaqat aholi orasida balki, xalqaro talabalarni ham jalb qilishga yordam beradi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni ayta olamanki, turizm sohasida kadrlarga bo'lgan ehtiyoj yana ham yuksalib bormoqda.Bu ehtiyojlarni qoplash va turizmni rivojlantiishga hissa qo'shish maqsadida mahalliy aholini jalb qilishimiz kerak.Mahalliya aholini turizmning o'rni va undan keladigan foyda bilan chuqurroq tanishtirib, ularda turizmda o'rganishi hissini ortishiga sabab bo'la olamiz.Bundan tashqari, xususiy akademiyalar va o'quv kurslarini tashkillashtirishga yordam bergan holda tezroq turizm va mehmonxona sohalarini o'rganish imkoniyatinini kengaytira olamiz deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbaalar

[8] **А.А.Эштаев. Ўзбекистоннинг туризм салоҳияти ва уни ривожлантириш истиқболлари. (Монография)** – Самарқанд: "Ипак йўли"туризм халқаро университети нашриёти 2023

[9] https://www.untourism.int/gender-and-tourism

[10] https://buxdu.uz/

1. A.A.Eshtayev “O’zbekistonning turizm salohiyati va uni rivojlantirish istiqbollari(monografiya)”-Samarqand “Ipak yo’li” turizm xalqaro universiteti nashriyoti 2023
2. https://lex.uz/acts/-7031185
3. https://buxdu.uz/
4. https://www.untourism.int/gender-and-tourism
5. https://www.untourism.int/un-tourism-education
6. https://wttc.org/research/economic-impact
7. https://share.google/L9bmX86Xwyr5158B4
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Foydalanuvchi:Buxoro_turizm_va_madaniy_meros_texnikumi
9. https://share.google/L9bmX86Xwyr5158B4